

Ekologik Soliq Islohotlari Istiqbollari

Рахимов Афзалбек Құдрам ўғлы¹


Anatatsiya: Ushbu maqolada soliq tizimini qanday qilib ekologik yo`naltirish mumkinligi va bu jarayonda nimalarga e'tibor qaratish zarurligi ko'rib chiqildi. Xususan, ekologik soliqlar ichida eng keng tarqagan, uglerod solig`ini amaliyotga tadbiq qilishdagi e'tiborga molik jihatlar muhokama qilindi. Bundan tashqari, uglerod solig`ining qanday ishlashi, uning iqtisodiyotning boshqa jabhalariga ta'siri qandayligi, ushbu soliqni loyihalashdagi muhim omillar maqolada yoritib berildi. Hozirgi kunga kelib atrof-muhit o`zgarishidan eng ko`p zarar ko`rayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq tizimini qanday qilib ekologik yo`naltirish mumkinligi borasidagi fikrlar maqola so`ngida keltirilgan.

KIRISH

Iqlim o`zgarishining salbiy ta'sirlari ijtimoiy hayotimizda allaqachon sezilmoqda va yanada yomonlashishi kutilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqlimning buzilishi Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga (BMR) erishish yo`lidagi eng katta to`sinqlardan biri bo`lib taraqqiyotni izdan chiqarishga tahdid solib kelmoqda va yalpi ichki mahsulotga sezilarli yo`qotishlarni keltirib chiqarishi mumkinligi tahmin qilinmoqda. Iqlim o`zgarishiga qarshi kurash jarayonida chiqindilar miqdori nisbatan ko`p bo`lgan rivojlanayotgan mamlakatlardagi siyosiy qarorlar muhim ahamiyat kasb etamoqda. O`zbekiston ham boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida so`nggi yillarda Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga erishishga qartilgan ko`plab siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. BMRning eng muhim maqsadlaridan biri bo`lgan iqlim o`zgarishiga qarshi kurashish doirasida O`zbekistonda ham ko`lab siyosiy qarorlar qabul qilinmoqda. Bu qarorlar asosan energetika sohasiga yo`naltirilgan bo`lib, iqlim o`zgarishiga qarshi kurashishning muqobil vositalari bo`lgan fiskal instrumentlardan foydalanish imkoniyatlari hali ko`rib chiqilganicha yo`q. Dunyoning qator mamlakatlarida bu kabi harakatlar allaqachon boshlab yuborilgan bo`lib, hozirgi kunga kelib qariyb 46 ta mamlakatda Emissiya Savdo Tizimi (EST) yoki uglerod solig`i joriy qilinganini takidlash mumkin (1-rasm). Bu davlatlarda umumiy hisobda 38 ta turli xil iqlim o`zgarishiga qarshi kurashishga yo`naltirilgan fiskal instrumentlardan foydalanuvchi loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu turdagи loyihalar ichida eng keng tarqalganlardan uglerod solig`i hamda Emissiya Savdo Tizimlarini (EST) misol qilib keltirishimiz mumkin.

Hozirgi kunga kelib dunyo bo`yicha 50 mlrd. tonna CO₂ ekvivalentida issiqxona gazlari chiqindi sifatida atmosferaga chiqarilmoqda. Ammo ko`plab mamlakat, tuman va hududiy loyihalar evaziga bu chiqindilarning qariyb 23 foizi fiskal instrumentlar yordamida qamrab olingan bo`lib ularga qarshi kurash davom etmoqda. Jumladan, 37 ta milliy, 1 ta hududiy hamda 28 ta submilliy, jami 66 ta iqlim o`zgarishiga qarshi fiskal harakterga ega bo`lgan loyihalar 46 ta mamlakat tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda (2-rasm). 2-rasmga e'tibor qaratadigan bo`lsak, loyihalar bilan qamrab olingan emissiyalarning qariyb yarmi asosan ikkita loyihaga, Yevropa Ittifoqi Emissiya Savdo Tizimi (EU ETS) hamda Xitoy milliy Emissiya Savdo Tizimi (China National ETS) to`g`ri keladi.


1-rasm: EST yoki uglerod solig`i joriy qilingan, rejajashtirilgan yoki joriy qilish imkoniyatlari ko`rib chiqilayotgan mamlakatlar



Manba: Jahon banki , 2021

¹ Фискал институт мустақил тадқиқотчысы

2-rasm: Iqlim o`zgarishiga qarshi loyihalar bilan qamrab olingen global issiqxona gazlarining ulushi



*Loyihalar nomi inglez tilida keltirilgan


Manba: Jahon Banki², 2021

Bu kabi loyihalar hozirda insoniyatga har doimgidan-da zarurroq. Aks holda, iqlim o`zgarishining, jumladan issiqxona gazalri chiqindilaring ko`payishining, oqibatlari jiddiy ko`rinish olishi mumkin. Birlashgan millatlar tashkilotining iqlim o`zgarishi bo'yicha hukumatlararo kengashining ma'lumotlariga ko'ra, inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan global uglerod chiqindilarining ko`payishi "odamlar va ekotizimlar uchun jiddiy, keng tarqalgan va qaytarilmas ta'sirlarga" olib keladi (IPCC 2014). Ushbu ta'sirlar asta-sekin ammo halokatli oqibatlarni, masalan okeanlarning kislotalanishi va dengiz sathining ko`tarilishi bilan bir qatorda tez-tez uchraydigan ob-havo bilan bog`liq tabiiy ofatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Global haroratning halokatli o'sishiga yo'l qo'ymaslik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda emissiya o'sishini keskin kamaytirishni talab qiladi. Agar Parij kelishuvining global isishni Selsiy bo'yicha 2 darajadan pasroqda cheklash bo'yicha asosiy maqsadi amalga oshirilmasa, iqlim o`zgarishi oqibatida kelib chiqadigan tabiiy ofatlarning chastotasi oshishi mumkin. Biroq, maqsadga erishilgan taqdirda ham, iqlim o`zgarishi rivojlanayotgan mamlakatlarga nomutanosis ravishda ta'sir qilishda davom etadi. Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksining (BRM indeksi) pastroq ko'rsatkichlariga ega bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar iqlim o`zgarishining salbiy ta'siriga ko'proq duchor bo'lishadi (3-rasm va 4-rasm). Bu davlatlar, shuningdek, global issiqxona gazlari chiqindilarini uchun eng kam javobgar va o`zgaruvchan iqlimga moslashishga imkoniyatlari eng kam mamlakatlar hisoblanishadi. Iqlim o`zgarishi tabiiy ofatlarning sodir bo'lish chastotasini va jiddiyligini oshirishda davom etadi. Inson salomatligiga salbiy ta'sirlardan tashqari, bunday ofatlar tijorat va xususiy mulkni yo'q qilishi, infratuzilmaga zarar yetkazishi, qishloq xo'jaligi hosildorligini kamaytirishi va iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi mumkin. Natijada soliq tushumlarining yo'qolishi hamda ijtimoiy himoya va rekonstruksiya uchun davlat xarajatlarining ko`payishi davlat byudjetiga bosimni oshiradi. Shu sababli iqlim oq`garishiga qarshi kurashishning fiskal instrumentlaridan ham faol foydalnish, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, talab etiladi.

Ushbu maqolada fiskal vositalar inson farovonligini oshirish bilan birga iqlim o`zgarishiga qarshi kurashning eng samarali vositalaridan biri ekanligi ta'kidlanadi. Ekologik soliqlar - bu bazasi "atrof-muhitga aniq salbiy ta'sir ko'satadigan birlik (yoki uning muqobili)" bo'lgan soliqlardir (OECD 2018a). Soliq bazasi energiya iste'moli, transport, havo ifloslanishi va resurslardan foydalanish xajmini o'z ichiga olishi mumkin. Bu soliqlar energiyaning toza, samaraliroq manbalariga innovatsiyalar va investitsiyalarni rag'batlantirish bilan birga, qazib olinadigan yoqilg'ilarni yoqish va boshqa atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatni to'xtatish uchun narx signallaridan foydalanadi. Bundan tashqari, ekologik soliqlardan olinadigan daromad boshqa soliqlarni kamaytirish yoki iqtisodiyotning iqlim o`zgarishiga chidamlilagini oshirish uchun sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy himoya va davlat infratuzilmasiga xarajatlarni moliyalashtirish uchun yo`naltirilishi mumkin.


² https://carbonpricingdashboard.worldbank.org/map_data

3-rasm: Barqaror Rivojlanish Maqsadlari Indeksi xaritasi



Manba: Barqaror Rivojlanish Maqsadlari³, 2021

4-rasm: Global Iqlim Xavfi Indeks



Manba: Global Climate Risk index⁴, 2021

Ekologik Soliq Islohotlari

Ekologik Soliq Islohotlari (ESI) soliq tizimini ekologik yo`naltirish natijasida joriy qilinishi mumkin bo`lgan yangi turdag`i soliqlar (masalan, uglerod solig`i) bilan bir qatorda boshqa mavjud soliqlarni kamaytirishni, byudjet islohotlarini va qo`shimcha siyosiy qarorlarni o`z ichiga oladi. ESI asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda atrof-muhitga zarar yetkazuvchi ishlab chiqarish jarayonlarini soliqqa tortish orqali vujudga kelgan tushumlardan ekologik yo`naltirilgan davlat investitsiyalarini hamda ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirish uchun foydalanish orqali farovonlikni taminlashi mumkin bo`ladi. Bundan tashqari, iqtisodiyotga soliq yukini bir xilda saqlab turish uchun mavjud boshqa soliqlarni kamaytirish ham maqsadga muvofiq bo`ladi. Chunki rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq yukining ortishi iqtisodiy o`sishga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin.

³ <https://dashboards.sdgindex.org/map>

⁴ <https://www.germanwatch.org/en/19777>

ESIning afzalliklari nafaqat atrof-muhit muhofazasi sohasida balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ham ko`rinadi. ESIni amaliyotga joriy qilish asosiy uch yo`nalishda davlatlarga foyda keltirishi mumkin. Birinchidan, ESI tovarlar va xizmatlarning bozor narxlarini, shu jumladan atrof-muhitning tashqi ta'sirining ijtimoiy xarajatlarini aks ettirishini ta'minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishi mumkin. Ikkinchidan, ESI tovar va xizmatlarning narxlariga to`g`ridan-to`g`ri ta'sir qilish orqali turli firmalar va tarmoqlarda ifloslanishni kamaytirishni rag`batlantiradi. Uchinchidan, ESI boshqa soliqlarga qaraganda kamroq xarajat bilan ichki daromadlarni oshirishi mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlardan uchun ikkita omil ESIni ayniqsa jozibali qiladi. Birinchidan, ESI rivojlanayotgan mamlakatlarda emissiyalarni qisqartirish bilan birga iqtisodiy faoliyotni oshirish ehtimoli ko'proq. ESIning afzalliklari rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqalgan bir qancha xususiyatlarni aks ettiradi, jumladan

- Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarni kamaytirish uchun ESI daromadlaridan foydalanish orqali bandlik va ishlab chiqarishni oshirish imkoniyatlarini yaratadi;
- ichki soliqqa tortishning past darajalari, bu ESI uchun o'sishni kuchaytiruvchi davlat investitsiyalarini moliyalashtirish uchun ichki resurslarni safarbar qilish imkoniyatini beradi.

Bu omillar ESI rivojlangan mamlakatlarga qaraganda rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy faoliyot ko`rsatkichlarini (masalan, ishlab chiqarish va bandlik) ko'proq oshirishi ehtimoli mavjudligidan darak beradi.

Boshqa tomondan, bandlik va o'sishga ijobji ta'siridan tashqari, ESI farovonlikni bevosita yaxshilashi mumkin. Atrof-muhitni ifloslanirishni ko'p talab qiladigan faoliyatni soliqqa tortish orqali issiqxonaga gazlari chiqindilari hajmini kamaytirib havo sifati va aholi salomatligini yaxshilashga yordam beradi. Buning natijasida, aholining demografik ko`rsatkichlari yaxshilanadi va iqtisodiy o'sishga ijobji ta'sir ko`rsatadi.

ESIning yuqorida ta'kidlangan afzalliklari ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga zarur hisoblanadi. Chunki, atrof-muhit ifloslanishidan eng ko`p zarar ko`radigan aholi qatami bu kam daromadli va ijtimoiy himoyaga muhtoj uy xo`jaliklaridir. Dinan (2015) fikriga ko`ra rivojlangan mamlakatlarda uglerod solig`i tushumining 6-12 foizi aholining quyi 10 foiziga yo`naltirilgan ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirish uchun yetarli bo`ladi. Ammo soliqqa tortishda ham uglerod solig`ining progressivligiga e'tibor qaratish talab etiladi. Uglerod solig`i mexanizmi shunday bo`lish kerakki, uning yuki asosan boy qatlam aholiga tushushi kerak. Shundagina uglerod solig`i, rivojlanayotgan davlatlar uchun juda muhim bo`lgan, o`zining ijtimoiy funksiyasini bajara oladi.

Uglerod solig`i ekologik soliq islohotlari sifatida

Uglerod solig`ini joriy qilish jarayonida muhim yo`nalishlar mavjud bo`lib ularni e'tibordan chetda qoldirmaslik talab etiladi. Bu yo`nalishlar 5 ta qismdan iborat bo`lib ular quyidagicha:

- Soliq solinadigan bazani aniqlash
- Soliq stavkasini aniqlash
- Potensial kiruvchi ta'sirlarni oldini olish
- Daromadlardan foydalanish usullarini aniqlash
- Nazorat muvofiqlikni ta'minlash

Bundan tashqari, uglerod solig`i joriy etilar ekan uni qaysi yonilg`i turlariga qo`llash kerakligini aniqlash zarur. Ayrim mamlakatlarda uglerod solig`i qaysi turdagini yonilg`ilarni qamrab olganligi quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval Yonilg`iga solinadigan soliqlar

Mamlakat	Qamrab olingan yonilg`i turlari	Asosiy istisnolar
Britaniya	Barcha	Qishloq xo`jaligi, aviatsiya va suv transport
Daniya	Barcha	Xalqaro suv transporti
Fransiya	Barcha	Qishloq xo`jaligi, transport
Hindiston	Ko`mir	-
Irlandiya	Barcha	Qishloq xo`jaligi, Xalqaro suv transporti
Yaponiya	Barcha	Qishloq va o`rmon xo`jaligi, havo, temir yo`llar va suv transporti
Meksika	Ko`mir, neft	-
Norvegiya	Neft, gaz	Xalqaro suv transporti, baliqchilik va qishloq xo`jaliklari
Portugaliya	Barcha	Xalqaro suv transporti
Shvetsiya	Barcha	Qishloq xo`jaligi (qisman), Xalqaro suv transporti
Shvetsariya	Barcha	Transportlar
To`g`ridan -to`g`ri emissiya soliqlari		
Mamlakatlardan	Qamrab olingan emissiyalar	
Avstraliya	Elektr energiya, sanoat, chiqindi	
Chili	Elektr energiya	
Janubiy Afrika	Yonilg`ilar, sanoat jarayonlari, mahsulotdan foydalanish	

Bu yonilg`i turlari uglerod solig`i bazasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchisini bosqichda uglerod solig`i stavkasini belgilash talab etiladi. Bu bosqichda ayniqsa xatoga yo`l qo`ymaslik kerak bo`lib, noto`g`ri belgilangan stavka bozor iqtisodiyotiga o`tayotgan davlatlarda narx signallariga ta`sir o`tkazish orqali talab va taklif muvozanatini buzib yuborishi mumkin. 2-jadvalda uglerod solig`i stavkasi mamlakatlar kesimida ko`rsatilgan.

2-jadval Uglerod Soliq stavkalari mamlakatlar kesimida

Mamlakatlar	1 tonna uglerod chiqindisining narxi (AQSh dollarida)
Britaniya	22
Chili	5
Daniya	31
Finlandiya	48-83
Fransiya	24
Islandiya	10
Hindiston	6
Irlandiya	28
Yaponiya	3
Meksika	1-4
Norvegiya	4-69
Portugaliya	5
Janubiy Afrika	8.5
Shvetsiya	132
Shvetsariya	87

Ko`rib turganimizdek uglerod solig`i stavkalari mamalakat ijtimoiy-iqtisodiy ahvolida kelib chiqqan holda turlicha belgilangan. Har bir mamlakatda uglerod solig`i stavkasini belgilashda individual yondashuv talab etiladi. Aks holda, yuqorida ta`kidlangani kabi iqtisodiyotda kutilmagan salbiy sho`klarni keltirib chiqarishi mumkin.

Soliq mexanizmi ishlab chiqishda bunday potensial salbiy ta`sirga ega bo`lgan omillarni oldini olish yo`llarini qidirib ko`rish mumkin. Bular soliq stavkalarini pasaytirish, rentabellik past bo`lgan sohalarni soliqdan ozod etish, uglerod solig`i bo`yicha imtiyozlar berish, atrof-muhitga kam zarar yetkazuvchi texnologiyalardan foydalanishni rag`batlantirish uchun subsidiyalar berish bo`lishi mumkin.

3-jadval Potensial kiruvchi tas`sirlarni oldini olish usullari

Potensial kiruvchi ta`sirlarni oldini olish usullari	Mamlakatlar
Istisnolar	Britaniya, Yaponiya, Shvetsariya
Pasaytirilgan soliq stavkalari	Shvetsiya, Fransiya
Uglerod solig`i bo`yicha imtiyozlar	Daniya, Irlandiya, Finlandiya
Ishlab chiqarishga asoslangan chegirmalar	Shvetsiya
Subsidiyalar	Janubiy Afrika, Irlandiya, Shvetsariya, Yaponiya
Boshqa soliqlardan imtiyozlar	Britaniya, Fransiya

Uglerod solig`i daromadlaridan foydalanishning asosiy uch yo`nalishi mavjud bo`lib, ular qo`shimcha davlat xarajatlari uchun ishlatalinishi, boshqa soliq stavkalarini pasaytirish uchun imkoniyat berishi va atrof muhit muhofazasini moliyalashtirish uchun xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, turli davlarlar o`zlarining maqsadlaridan kelib chiqqan holda uglerod solig`i daromadlaridan boshqa maqsadlarda ham foydalanishlari mumkin bo`ladi.

4-jadval Uglerod solig`i daromadlaridan foydalanish usullari mamlakatlar kesimida

Mamlakatlar	Uglerod solig`idan foydalanish usullari
Avstraliya	Kam ta'minlangan oilalarga yordam, shu jumladan daromad solig`ini isloq qilish; Ko`mir, elektr energiyasi uchun kompensatsiya Kreditlardan foydalanishni osonlashtirish
Britaniya	Daromad va mol-mulk solig`ini kamaytirish va imtiyozlar berish
Chili	Umumiy daromadni oshirish natijasida ta`lim va sog`liqni saqlash sohalarini rivojlantirish
Daniya	Jismoniy shaxlardan olinadigan daromad solig`i, pensiya fondi va ijtimoiy soliq stavkalarini pasaytirish;

	Energiya sarfi samaradorligi va atrof-muhit tozaligini taminlash.
Finlandiya	Jismoniy shaxlardan olinadigan daromad solig`i, pensiya fondi va ijtimoiy soliq stavkalarini pasaytirish
Fransiya	Jismoniy va yuridik shaxlardan olinadigan daromad va foyda solig`i stavkalarini pasaytirish Kam ta'minlangan oilalarga energiya ta'minotini oshirish
Islandiya	Umumiy daromadlarni oshirish
Hindiston	Toza energiya va atrof-muhitni ta'minlash
Irlandiya	Umumiy daromadlarni oshirish, defitsitni kamaytirish va qarzlarni to`lash
Yaponiya	Kam uglerod ajratadigan texnologiyalarni qo`llab-quvvatlash
Meksika	Umumiy daromadni oshirish
Norvegiya	Umumiy daromadni oshirish; Jismoniy va yuridik shaxlardan olinadigan daromad va foyda solig`i stavkalarini pasaytirish.
Portugaliya	Kam ta'minlangan uy xo`jaliklari uchun daromad solig`i stavkasini pasaytirish; Umumiy daromadni oshirish.
Janubiy Afrika	Qayta ishlanadigan energiya ta'minotini qo`llab quvvatlash; Jamoat transportini qo`llab quvvatlash.
Shvetsiya	Umumiy daromadni oshirish; Jismoniy va yuridik shaxlardan olinadigan daromad va foyda solig`i stavkalarini pasaytirish.
Shvetsariya	Hayotiy sug`urta va ijtimoiy soliqlarni kamaytirish; Qurilish sohasida energiya sarfi samaradorligini oshirish; Ekologik zarari kam bo`lgan texnologiyalarni qo`llab quvvatlash.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, iqlim o`zgarishiga qarshi global miqyosida kurash ketayotgan bir paytda rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda rivojlanayotgan mamlakatlar ham faol ishtirot etishi talab etiladi. Bu jarayonda energetika sohasidagi islohotlar bilan birlgilikda fiskal vositalardan ham foydalanish ayniqa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim hisoblanadi. Atrof-muhit himoyasi doirasida fiskal jumladan soliq islohotlarini amalga oshirish orqali rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy barqarorlikni yanada ta'minlashi ko`zda tutiladi. Adabiyotlarda soliq tizimini ekologik yo`naltirish Ekologik Soliq Islohotlari (ESI) deb yuritilib asosan uglerod solig`ini mexanizmini ishlab chiqishni o`z ichiga oladi. Uglerod solig`ini loyihalashda inobatga olinishi kerak bo`lgan yo`nalishlar mavjud bo`lib, ularni e'tibordan chetda qoldirish iqtisodiyotda jiddiy buzilishlarga sabab bo`lishi mumkin.

Boshqa rivojlanayotgam mamlakatlar qatorida O`zbekistonda ham ESIni amalga oshirish kun tartibidagi dolzarb mavzulardan biriga aylanib bormoqda. Buning asososiy sabalaridan biri Global Iqlim Xavfi Indeksiga nazar soladigan bo`lsak, O`zbekistonning iqlim o`zgarishidan ziyon ko`rish ehtimoli kattaligidadir. Global iqlim o`zgarishining asosiy sababchilari sanoatlashgan davlatlar bo`lishiga qaramasdan, rivojlanayotgan mamalakatlar ham o`zlarini atrof-muhit ifloslanishi oqibatlaridan himoya qilish maqsadida ekologik xavflarga qarshi kurashishning turli xil vositalardan, jumladan ESIdan, foydalanishni boshlashlari kerak. Ammo, har bir davlat soliq islohotlarini amalga oshirar ekan o`zining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoldidan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qiladi. Bu qarorlar, asosan 5 ta yo`nalishga mansub bo`lib, uglerod solig`i joriy qilishda uning bazasi hamda stavkasi belgilash, daromadlardan foydalanish usullarini aniqlash, potensial kiruvchi ta`sirlarni oldini olish hamda nazarat muvofiqligini ta'minlash bilan bog`liq bo`ladi. O`zbekiston sharoitida, uglerod solig`ini joriy qilish yuzasidan qaror qabul qilishda yuqorida aytib o`tilgan yo`nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. O`zbekistonda soliq yuki qo`shni davlatlarga nisbatan baland ekanligini inobatga olgan holda agar uglerod solig`i joriy qilinadigan bo`lsa, boshqa soliq stavkalarini pasaytirish maqsadga muvofiq bo`ladi. Chunki soliq yukining yanada ortishi fiskal bosimni oshirish tufayli iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko`rsatadi. Bundan tashqari boshqa ekologik soliqlar singari uglerod solig`i ham bevosita soliq hisoblanib, inflyatsiya darajasiga to`g`ridan-to`g`ri ta'sir o`tkazadi. Shu sababli, uglerod solig`i bazasi hamda stavkasini belgilashda sifat tahlili bilan birlgilikda raqamli tahlillardan ham foydalanish talab etiladi. Bu tahlillar asosan simulyatsion modellardan foydalangan holda uglerod solig`i joriy qilishning turli xil makro va mikro iqtisodiy ko`rsatkichlarga ta`sirini baholashdan iborat bo`ladi.